

i.f.n., dots. Shavkat Xusainov

Raqamli iqtisodiyot va agrotexnologiyalar universiteti

XALQARO MOLIVAVIY BOSHQARUV MEXANIZMLARIDA XALQARO AKSIYA BOZORLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada aksiyalar bozori korporatsiyalar va investorlar uchun qanday foydali ekani tahlil qilingan. Investorlar uchun likvidlik, kapitalning o'sishi va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi asosiy omillar ta'kidlangan. Shuningdek, bozor kapitalizatsiyasining iqtisodiyotga ta'siri, uning korporativ rivojlanishga hissasi va global moliyaviy bozorlar bilan o'zaro bog'liqligi ko'rib chiqilgan. Iqtisodiyotning rivojlanishi, yangi texnologik loyihalarni amalga oshirishda aksiyalar bozorining ahamiyatiga alohida e'tibor qaratilgan. Xalqaro birjalar misolida bozorning strategik ahamiyati namoyish etilgan.

Kalit so'zlar: aksiyalar bozori, kapitalizatsiya, iqtisodiy barqarorlik, korporativ rivojlanish, xalqaro birjalar, likvidlik, investorlar, global iqtisodiyot.

INTERNATIONAL STOCK MARKETS IN THE MECHANISMS OF INTERNATIONAL FINANCIAL MANAGEMENT

Abstract: This article analyzes how the stock market benefits both corporations and investors. Key factors ensuring liquidity, capital growth, and economic stability for investors are highlighted. The impact of market capitalization on the economy, its contribution to corporate development, and its interconnection with global financial markets are also examined. Special attention is given to the importance of the stock market in economic development and the implementation of new technological projects. The strategic significance of the market is demonstrated using examples of international exchanges.

Keywords: stock market, capitalization, economic stability, corporate development, international exchanges, liquidity, investors, global economy.

Kirish

Bugungi globallashtirilgan dunyoda xalqaro moliyaviy boshqaruv mexanizmlari iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va ustuvorlikni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Jahon bozorlarining o'zaro integratsiyasi, moliyaviy resurslarning erkin harakatlanishi hamda texnologik taraqqiyot moliyaviy boshqaruv mexanizmlarining chuqur va samarali rivojlanishiga turtki bermoqda. Shuningdek, global iqtisodiy munosabatlar, kapital bozorlari va korporativ boshqaruv o'rtasidagi

mustahkam bog‘liqlik xalqaro moliyaviy tizimning ishonchliligi hamda samaradorligini ta’minlaydi.

Xalqaro moliyaviy boshqaruv mexanizmlari moliyaviy resurslarni samarali boshqarish, investitsiyalarni jalb qilish va transmilliy korporatsiyalar faoliyatida moliyaviy risklarni boshqarishga qaratilgan tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Bugungi kunda global moliyaviy bozorlar murakkab va yuqori darajada integratsiyalashgan bo‘lib, har bir davlatning va kompaniyaning moliyaviy strategiyasi xalqaro omillarga bog‘liq holda shakllanadi.

Shu bilan birga xalqaro moliyaviy boshqaruvning mohiyati, kapital bozorlarining vazifalari va korporativ boshqaruvda moliyaning o‘rni chuqur tahlil qilinadi. Shu bilan birga, global moliyaviy tizimning afzalliklari, muammolari va kelgusi rivojlanish yo‘nalishlari ham muhim o‘rin tutadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Xalqaro moliyaviy boshqaruv – bu xalqaro darajada moliyaviy resurslarni jamlash, ularni to‘g‘ri taqsimlash va iqtisodiy taraqqiyot manfaatlariga yo‘naltirish jarayonidir. U xalqaro moliya institutlari, transmilliy kompaniyalar, davlatlar va investorlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar tizimi orqali amalga oshiriladi. Nobel mukofoti laureati Jozef Stiglis “xalqaro moliyaviy institutlar va kapital oqimlarining shaffof boshqarilishi, o‘ziga borayotgan iqtisodiyotlar uchun jahon bozoriga integratsiyani yengillashtiradi”[1] deb ta’kidlab, xalqaro moliyaviy boshqaruv alohida o‘rnini ko‘rsatib bergan.

Shuningdek, korporativ boshqaruvda moliyaning o‘rni tobora ortib, kompaniyalarning moliyaviy barqarorligi, ishonchliligi va raqobatbardoshligini ta’minlashda hal qiluvchi faktorga aylanmoqda. AQSh iqtisodchisi Milton Fridman e’tirof etganidek: “korporativ boshqaruvda moliyaviy intizom va to‘g‘ri kapital boshqaruvi kompaniyalar qiymatini maksimallashtirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi”[2].

Yirik iqtisodchi Jon Meynard Keyns xalqaro moliyaviy tizimlar haqida fikr bildirib, “to‘g‘ri tashkil etilgan xalqaro moliyaviy boshqaruv global iqtisodiy barqarorlik va farovonlikning poydevori hisoblanadi”[3], qayd etishicha, davlatlar o‘rtasidagi moliyaviy munosabatlar muvozanatni saqlash hamda iqtisodiy inqirozlarni oldini olish uchun aniq va samarali mexanizmlarni talab etadi.

Xalqaro kapital bozorlari bu tizimning asosiy mexanizmlaridan biri bo‘lib, iqtisodiy sub’ektlarga moliyaviy resurslardan samarali foydalanish imkonini yaratadi. Maykl Porter o‘z tadqiqotlarida “xalqaro kapital bozorlari raqobatbardoshlik va innovatsiyalar uchun asosiy moliyaviy resurslarni taqdim etish orqali global iqtisodiyotning drayveriga aylanadi”[4] hamda globallashtirish davrida xalqaro fond birjalari, obligatsiya bozorlari va sarmoya platformalari jahon

iqtisodiyotida moliya oqimlarini boshqaruvchi asosiy vositalar sifatida maydonga chiqmoqda.

Bugungi kunda xalqaro moliyaviy boshqaruvning muammolari ham mavjud – moliyaviy inqirozlar, global kapital oqimlarining nomutanosibligi va moliyaviy risklarning oshib borishi dunyo iqtisodiyoti oldida yangi chaqiriqlar tug'dirmoqda. Ammo shu bilan birga, raqamli moliya, blokcheyn texnologiyasi va xalqaro hamkorlik orqali bu tizimni yanada samarali va barqaror qilish imkoniyatlari ham ortib bormoqda. Jahon bankining sobiq prezidenti Robert Zellik shunday fikr bildirgan: “Yangi raqamli texnologiyalar orqali xalqaro moliyaviy boshqaruvning shaffofligini oshirish, xatarlarni pasaytirish va sarmoyaviy muhitni yaxshilash mumkin”[5].

M.A.Ergashev tadqiqotlarida aksiyadorlik jamiyatlari zamonaviy moliyaviy boshqaruv mexanizmining asosiy elementlari hamda aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan majburiyatlarni o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash, qo'shimcha investitsion imkoniyatlarni oshirish hamda ishlab chiqarish jarayonlariga innovatsiyalarni keng joriy etish orqali moliyaviy barqarorlikni oshirish masalasini oldinga so'radi[6].

S.E.Elmirzaevning fikricha, investorlarning faolligi qimmatli qog'ozlar bozorida instrumentlar turlari va diversifikatsiyalash imkoniyatiga ham bevosita bog'liq. Aynan shu jihat moliyaviy instrumentlar daromadliligi va riskliligini o'zaro solishtirish asosida optimal moliyaviy qarorlar qabul qilishga xizmat qiladi. Bunda obligatsiyalar daromadi kafolatlangan qimmatli qog'ozlar sifatida bozor daromadliligini belgilash, aksiyalar uchun daromad darajasini aniqlash kabilarda alohida dolzarblik kasb etadi[7].

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy va solishtirma tahlil, umumlashtirish, guruhlashtirish, kompleks baholash, abstrakt-mantiqiy fikrlash kabi usullardan foydalanilgan. Mavzuga doir empirik tadqiqotlarga tayangan holda, mantiqiy tahlil, ilmiy mulohaza va tizimli yondashuv usullaridan keng foydalanildi hamda tegishli xulosalar shakllantirildi.

Tahlil va natijalar

Global moliyaviy strategiyalarda korporativ moliyaviy boshqaruv mexanizmlari, moliyaviy hujjatlar va hisobotlar xalqaro standartlariga mos kelishi zarur. Bu kompaniyaning jahon moliyaviy tizimidagi shaffofligini ta'minlaydi va xorijiy investorlar uchun ishonchli moliyaviy manba sifatida xizmat qiladi.

Qayd etish kerakki, xalqaro moliyaviy boshqaruv mexanizmlari kompaniyalar va davlatlarning moliyaviy siyosatini samarali va integratsiyalashgan tarzda

yuritishga xizmat qiladi. Ushbu mexanizmlar xalqaro miqyosda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, investitsiya jalb qilish va moliyaviy xavf-xatarlarni boshqarishga yo'naltirilgan. Chunki, bu holat: Birinchi navbatda, xalqaro moliyaviy boshqaruvning asosiy vazifalaridan biri, valyutalar kursining o'zgarishlarini kuzatish va prognoz qilishdir. Bunday mexanizmlar jahon bozorlaridagi valyutalarning narxiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish orqali investitsiyalarni boshqarishda strategik qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Shu bilan birga, valyutalar kursining katta o'zgaruvchanligi xalqaro savdo va investitsiyalarga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ikkinchi jihat - moliyaviy risklarni diversifikatsiya qilishdir. Investorlar va kompaniyalar kapital qo'yilmalarini turli moliyaviy vositalar va bozorlar orasida taqsimlash orqali xatarlarni kamaytirishga harakat qiladilar. Xalqaro moliyaviy bozorlar ishtirokchilari turli mamlakatlar qonunchiligi, soliq rejimlari va iqtisodiy muhitlariga muvofiqlashishlari kerak.

Xalqaro moliyaviy mexanizmlarning yana bir muhim jihati - kapitalning oqimi. Xalqaro bozorlarda kapital oqimi yuksak miqyosda transmilliy korporatsiyalarning investitsiya faoliyatiga bog'liqdir. Shuning uchun kompaniyalar o'z kapitalini samarali boshqarish, foyda olish va ijobiy fiskal natijalarga erishish uchun jiddiy izlanishlardan iborat moliyaviy kuzatuv va tahlilni amalga oshiradilar.

Shuni qayd etish kerakki, aksiyalar bozori, moliya bozorining eng muhim tarkibiy qismi sifatida, iqtisodiy tizimning dinamikasini va ishlab chiqarishning rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu bozorda aksiyalar, ya'ni korporatsiyalar tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar savdosi amalga oshiriladi. 2023-yilda dunyo bo'yicha aksiyalar bozorlarining umumiy kapitalizatsiyasi 120 trln. AQSh dollardan oshdi. Bu raqam, kapital bozorining jahon iqtisodiyotidagi miqyosi va ahamiyatini ko'rsatadi[8]. Ma'lumki, aksiyalar bozori asosan ikkita muhim vazifani bajaradi: kapitalni jalb qilish va investorlar uchun likvidlikni ta'minlash. Shuningdek, bozorni tartibga solish qilish va shaffoflikni ta'minlash ham uning asosiy funksiyalaridan biridir.

Shunday kelib chiqib, aksiyalar bozori korporatsiyalarga o'z faoliyatini kengaytirish uchun zarur bo'lgan kapitali topish imkonini beradi. Kompaniyalar aksiyalar chiqarish orqali investorlardan pul mablag'larini jalb qiladi va ularning aksiyalarini birja orqali sotishadi. Bu mablag'lar esa tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga, yangi loyihalarga sarmoya kiritishga yoki xarajatlarni o'zgartirishga qaratilgan bo'lishi mumkin. Xususan, 2023-yilda AQSh birjalarining umumiy kapitalizatsiyasi 50 trln. AQSh dollarga yaqinlashdi. Nyu-York birjasi (NYSE) va Nasdaq birjalarining umumiy kapitalizatsiyasi jahon kapitalizatsiyasining taxminan 40%ini tashkil etadi[9].

Aksiyalar bozori ikkala tomon uchun, ya'ni korporatsiyalar va investorlar uchun ham foydalidir. Investorlar aksiyalar orqali daromad olish imkoniyatiga ega bo'lishadi, chunki aksiyalar narxi bozorda oshsa, ularning kapitali ko'payishi mumkin. Shu bilan birga, aksiyalar likvidlikning yuqori darajasini ta'minlaydi, bu esa investorlar uchun bir bozorda savdo qilishni osonlashtiradi.


Aksiyalar bozori kapitalizatsiyasini hisoblashda birjada savdoga qo'yilgan kompaniyalarning barcha aksiyalarining umumiy narxi nazarda tutiladi. Kapitalizatsiya, odatda, kompaniyaning bir aksiyasining narxi va birjadagi umumiy aksiyalar sonining ko'paytmasi orqali aniqlanadi. Kapitalizatsiyaning yuqori bo'lishi, kompaniyaning bozordagi muvaffaqiyatliligini va ikkala investorlar uchun ham qat'iylikni anglatadi.

Aksiyalar bozori kapitalizatsiyasining o'sishi iqtisodiy barqarorlik va korporativ rivojlanishning belgisi sifatida qaraladi. Kapitalizatsiyaning o'sishi bo'lsa, birja qatnashchilarining ishonchi ortishi mumkin, bu esa yangi investorlarning qo'shilishiga va iqtisodiy aktivlikning oshishiga olib keladi. Kapitalizatsiyaning yomonlashishi, o'z navbatida, kompaniyaning e'tiborsiz bo'lishi, ishlab chiqarishning pasayishi va iqtisodiy inqirozga olib kelishi mumkin.

Aksiyalar bozorining rivojlanishining iqtisodiyotga ta'siri sezilarlidir. Shu jihatdan olganda aksiyalar bozori iqtisodiy rivojlanishning mustahkam zaminini yaratadi. Kapital bozorining rivoji, korporativ sektorning o'sishi va yangi texnologik loyihalarning amalga oshirilishiga yordam beradi. Aksiyalar bozori, shuningdek, investorlar va ommaviy sektor o'rtasidagi ishonch va savdo shartlarini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi.

Shu tufayli har bir mamlakatdagi aksiyalar bozori o'zining muhimligini ko'rsatadi. Masalan, Amerika Qo'shma Shtatlaridagi Nyu-York birjasi (NYSE) va Nasdaq, Yevropa Ittifoqidagi London birjasi va Yaponiyaning Tokio birjasi xalqaro kapitalizatsiyaning eng yirik manbalari hisoblanadi. Bu birjalarda savdo qilinadigan aksiyalar ko'pincha global iqtisodiyotga ta'sir qiladi.

Aksiyalar bozori, o'zining kapitalizatsiyasi bilan, iqtisodiyotning faoliyatlarini, rivojlanishini va iqtisodiy sur'atlarini belgilaydi. Bu bozordagi o'sish, o'z navbatida, global va mahalliy moliyaviy bozorlarning holatini ko'rsatadi. Aksiyalar bozoriga bog'liq har qanday o'zgarish, nafaqat korporatsiyalarning strategik qarorlariga, balki jahon iqtisodiyotining barqarorligiga ham ta'sir ko'rsatadi. Shunday qilib, aksiyalar bozori, kapitalizatsiyasi orqali, iqtisodiy taraqqiyotni, rivojlanishni va o'zgarishlarni yanada aniq ko'rsatadi.



1-rasm. Jahon iqtisodiyotida umumiy kapitalizatsiyasining tendensiyalari[9]

1-rasm ma'lumotlariga qaraydigan bo'lsak, 2000-2002 yillar davrida internet bo'hroni va bozorning pasayishi kuzatildi. 2000-yilda "Dot-com bubble" (internet kompaniyalari bo'hroni) natijasida texnologik kompaniyalarga bo'lgan ortiqcha ishonch yo'qoldi. Bozorning kapitalizatsiyasi 30,5 trln. AQSh dollardan 2002 yilga kelib 23,5 trln. AQSh dollargacha tushib ketdi. Bu davrda internetga asoslangan startaplar yuqori baholandi, lekin ularning daromad olmasligi inqirozga sabab bo'ldi. Investorlar ishonchini yo'qotdi, bu esa global bozorlarga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Yirik texnologiya kompaniyalari narxi keskin tushib ketdi va ba'zi kompaniyalar inqirozdan qutula olmadi.

2003-2007-yillar davrida bozor tiklanishi va o'sish kuzatildi. 2003-yildan keyin jahon iqtisodiyotida tiklanish jarayonlari kuzatildi. Bozor kapitalizatsiyasi 2003-yildagi 30,2 trln. AQSh dollardan 2007-yilga kelib 57,4 trln. AQSh dollargacha o'sdi. Bu davrda infratuzilma loyihalarining kengayishi, korporativ daromadlar o'sishi va bozorga yangi kompaniyalarning chiqishi sabab bo'ldi. Iqtisodiy o'sish sur'atlari yuqori bo'lgan Yevropa va Osiyo davlatlari bozorlari kapitalizatsiyasini kuchaytirdi.

2008-2009-yillar davrida global moliyaviy inqiroz va keskin pasayish kuzatildi. 2008-yilda global moliyaviy inqiroz natijasida jahon aksiyalar bozori kapitalizatsiyasi 50,9 trln. AQSh dollarga tushib ketdi. AQShda ipoteka krediti bozorining tushib ketishi, bank sektorining inqirozi va global iqtisodiy notinchliklar inqirozga sabab bo'ldi. Investorlar aktivlarni sotishga shoshildi, bu esa bozordagi likvidlikning keskin kamayishiga olib keldi.

2010-2017-yillar davrida inqirozdan keyingi tiklanish kuzatildi. 2010-yildan boshlab bozor tiklanishni boshladi. Bozor kapitalizatsiyasi 2017 yilga kelib 77.6 trln. AQSh dollarga yetdi. Markaziy banklar tomonidan pul-kredit siyosati kuchaytirildi, davlatlar investitsiya muhitini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarni qabul qildi. Jahon birjalarining likvidligi tiklandi, texnologik va iste'mol sektorlari eng katta o'sishni qayd etdi.

2018-2019-yillar davrida savdo urushlari va siyosiy notinchliklar kuzatildi. 2018-2019-yillarda AQSh va Xitoy o'rtasidagi savdo urushlari bozordagi notinchliklarni kuchaytirdi. Kapitalizatsiya o'sishi sekinlashdi. Geosiyosiy hodisalar, savdo sanksiyalari va bozordagi ma'lumotlarga ishonchsizlik sabab bo'ldi. Yevropa va Osiyo bozorlari pasayishga uchragan bo'lsa ham, AQSh texnologiya sektori barqarorligini saqlab qoldi.

2020-2023 yillar davrida pandemiyadan keyingi o'sish kuzatildi. 2020-yilda COVID-19 pandemiyasi sababli qisqa muddatli pasayish kuzatildi, lekin keyingi yillarda bozor tez tiklanib, 2023-yilda kapitalizatsiya 120.3 trln. AQSh dollarga yetdi. Markaziy banklar tomonidan amalga oshirilgan fiskal va pul-kredit chora-tadbirlari, raqamli iqtisodiyotning o'sishi sabab bo'ldi. Texnologik sektorlardagi global kompaniyalar bozorning eng muhim drayverlari bo'ldi.

1-jadval

Aksiyalar bozorining kapitalizatsiyasi (2023-yil)[9]

Davlat/Hudud	Umumiy kapitallashuv (trln. \$)	Bozorning faoliyat davri (yillar)	Likvidlik indeksi	Bozor o'sish sur'ati (%)
AQSh	45.4	226	87	10,2
Yaponiya	5.8	79	84	6,5
Yevropa Ittifoqi	12.1	70	80	8,7
Xitoy	11.3	28	75	15,0
Hindiston	3.7	24	73	12,4
Rivojlanayotgan davlatlar	7.5	15	65	18,0

2023-yildagi aksiyalar bozorining kapitallashuvi va likvidlik indeksiga asoslangan tahlil quyidagicha: AQShning kapitallashuvi 45,4 trln, AQSh doll., likvidlik indeksi 87 ball va o'sish sur'ati 10,2%, Yaponiyaning kapitallashuvi 5,8 trln, AQSh doll., likvidlik indeksi 84 ball va o'sish sur'ati 6,5%ga teng, Yevropa Ittifoqining kapitallashuvi 12,1 trln, AQSh doll., likvidlik indeksi 80 ball va o'sish sur'ati 8,7%, Xitoyning kapitallashuvi 11,3 trln, AQSh doll., likvidlik indeksi 75 ball

va o'sish sur'ati 15,0%, Hindistonning kapitallashuvi 3,7 trln, AQSh doll., likvidlik indeksi 73 ball va o'sish sur'ati 12,4%ga teng, Rivojlanayotgan davlatlar uchun kapitallashuv 7,5 trln, AQSh doll., likvidlik indeksi 65 ball va o'sish sur'ati 18,0%, AQSh va Xitoy bozorlari eng yuqori o'sish sur'atlariga ega bo'lib, rivojlanayotgan davlatlar ham yuqori o'sish sur'atini ko'rsatmoqda, Yevropa Ittifoqi va Yaponiya bozorlari barqaror rivojlanishga ega bo'lsa-da, AQSh va Xitoy bilan solishtirganda pastroq o'sish sur'atlariga ega, Hindiston bozori ham yuqori o'sish sur'ati bilan ajralib turadi,

Shunday qilib, jahon aksiya bozori global iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. U investorlar uchun ishonchli vosita bo'lib, kompaniyalar va investorlar o'rtasida moliyaviy aloqalarni ta'minlaydi. Shu bilan birga, olimlarning fikrlari va tadqiqotlari bozor rivojlanishining nazariy asoslarini yanada mustahkamlaydi. Aksiya bozori nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi, balki innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash, yangi texnologiyalarni joriy etish va global moliyaviy tizimni rivojlantirishda ham muhim rol o'ynaydi.

Xulosa va takliflar

Xalqaro moliyaviy boshqaruvning rivoji va samaradorligini oshirishda O'zbekiston uchun ham katta ahamiyatga ega. O'zbekiston global moliyaviy tizimga integratsiyalanish jarayonida muhim rol o'ynamoqda, chunki mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi va moliyaviy sektorining mustahkamlanishi xalqaro moliyaviy bozorlar bilan o'zaro aloqalarni kuchaytirishga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir.

O'zbekistonning xalqaro moliyaviy bozorlar bilan integratsiyasini kuchaytirish uchun, davlat, xususiy sektor va xalqaro moliyaviy tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlik juda muhimdir. Bu, avvalo, mamlakatning moliyaviy resurslarini to'g'ri taqsimlash, tashqi qarzlarning samarali boshqarilishi va moliyaviy yordam dasturlaridan foydalanishni ta'minlashga yordam beradi. Xalqaro moliyaviy tizimda O'zbekistonning ishtirok etishi mamlakatga investitsiyalarni jalb qilish, savdo aloqalarini rag'batlantirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladigan bir qator yo'nalishlarni qayd etish mumkin. Jumladan:

- Davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni yaxshilash, jumladan, davlat-xususiy sheriklik loyihalarini rivojlantirish orqali O'zbekistonning moliyaviy bozorlardagi ishtiroki kengaytirilishi mumkin. Bu biznes muhitini yaxshilash va investitsiyalar uchun yanada jozibador shart-sharoitlar yaratishga yordam beradi:

- Xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlikni chuqurlashtirish, ularning moliyaviy va texnik yordam dasturlaridan foydalanish imkoniyatlarini oshirish tavsiya etiladi. Bu iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va infratuzilmani rivojlantirishga katta hissa qo'shadi.

- Mamlakatning ichki va tashqi moliyaviy resurslarini samarali boshqarish mexanizmlarini yaratish zarur. Bu budjet mablag'larining samaradorligini oshirish va tashqi qarz yukini kamaytirishga yordam beradi.

- Xalqaro investorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, jumladan, soliq imtiyozlari, huquqiy kafolatlar va shaffoflikni ta'minlash orqali investitsiya muhitini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

- Xalqaro savdo tashkilotlari va integratsiya birlashmalarida ishtirokni kuchaytirish orqali O'zbekistonning tashqi savdo aloqalarini rivojlantirish tavsiya etiladi. Bu milliy mahsulotlar uchun yangi bozorlarga yo'l ochadi.

- Xalqaro moliyaviy bozorlar bilan integratsiyani mustahkamlash uchun raqamli moliya texnologiyalari va innovatsion instrumentlarni joriy etish muhim. Bu samaradorlikni oshirib, moliyaviy xizmatlardan foydalanishni osonlashtiradi.

Shuningdek, O'zbekistonning moliyaviy bozori va korporativ sektorining rivoji uchun xalqaro moliyaviy institutlar, masalan, Xalqaro valyuta jamg'armasi va Jahon banki kabi tashkilotlar bilan hamkorlik juda muhim. Bu tashkilotlar O'zbekistonga iqtisodiy islohot va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda yordam berish, shuningdek, rivojlanishni qo'llab-quvvatlash maqsadida strategik ko'maklar ko'rsatish imkonini yaratadi.

O'zbekistonning xalqaro moliyaviy bozorlarga integratsiyalanishi, shubhasiz, mamlakatning iqtisodiyotning rivoji va barqarorligini ta'minlashga qaratilgan siyosatlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayon, shuningdek, O'zbekistonga iqtisodiy inqirozlardan saklanish, global moliyaviy risklarga tez reaksiya qilish va xalqaro moliyaviy barqarorlikni ta'minlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Stiglitz J.E. Globalization and Its Discontents. W.W. Norton & Company, 2002
2. Friedman M. Capitalism and Freedom. University of Chicago Press, 2002
3. Keynes J.M. The General Theory of Employment, Interest, and Money. Palgrave Macmillan, 2007
4. Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. Free Press, 2008
5. Zoellick B.R. America in the World: A History of U.S. Diplomacy and Foreign Policy, Twelve (Hachette Book Group, 2020
6. Ergashev M.A. Aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy barqarorligiga va uni boshqarish tizimiga ta'sir qiluvchi omillarning tasnifi // Moliya. 2023, №4
7. Elmirzayev S., Berdiyev U., Bo'riyev J. Iqtisod va moliya / Экономика и финансы 2021, 2(138). 2. 33-38.

8. <https://www.world-exchanges.org>

9. <https://www.sec.gov/data-research/sec-markets-data>